



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 6-fevral, № 25 (9196)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON PREZIDENTINING POKISTONGA DAVLAT TASHRIFI BOSHLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-fevral kuni davlat tashrifi bilan Islomobodga keldi.



Pokiston havo hududida oliy martabali mehmonning samolyotiga ushbu mamlakat Harbiy havo kuchlarining qiruvchi uchoqlari hamrohlik qildi.

“Nurxon” aeroportida davlatimiz rahbarini Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy, Bosh vazir Shahboz Sharif va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O'zbekiston Prezidenti Islomobod shahriga kelgach “Global sanoat va mudofaa yechimlari” kompaniyasining bosh qarorgohiga tashrif buyurib, Mudofaa kuchlari Bosh qo'mondoni – Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo'shinlari qo'mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning asosiy jihatlarini muhokama qilindi.

Harbiy va harbiy-texnik sohalardagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, bugungi kunda xavfsizlikka tahdid solayotgan xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ikki mamlakatning yetakchi mudofaa sanoati korxonalari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini faollashtirish, harbiy mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini kengaytirish, tajriba almashish va qo'shma o'quv tadbirlarini o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Transport va logistika sohasida istiqbolli infratuzilimaviy loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish masalalari ham kun tartibida bo'ldi.

Harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha alohida “Yo'l xaritasi”ni tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

O'zbekiston Prezidenti uchrashuv yakunida “Global sanoat va mudofaa yechimlari” kompaniyasining ishlanmalari, jumladan, Pokistonning zamonaviy harbiy texnikasi va qurol-yarog' namunalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarini Islomobod shahrida ajratilgan qarorgohda Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri Is'hoq Dor kutib oldi.

Shu yerda bo'lib o'tgan uchrashuvda Is'hoq Dor davlatimiz rahbariga o'tkazilishi rejalashtirilgan ikki tomonlama tadbirlar kun tartibi haqida ma'lumot berdi.

O'zbekiston Prezidenti Bosh vazir o'rinbosarini ushbu davlat tashrifini tashkil etishga qo'shgan ulkan hissasini alohida qayd etdi.

Tashrif doirasida bo'lib o'tadigan oliy darajadagi muzokaralar va Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi O'zbekiston – Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini yangi amaliy mazmun bilan boyitishiga ishonch bildirildi.

Shundan so'ng Pokiston Bosh vazirining qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko'tarildi va faxriy qorovul sayf tortdi. Davlat madhiyalari yangradi.

Shavkat Mirziyoyev va Shahboz

Sharif rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Islomobod shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif tor doirada muzokara hamda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishini o'tkazdilar.

Davlatimiz rahbari uchrashuv avvalida Bosh vazirni yaqinlashib kelayotgan muqaddas Ramazon oyi va Pokiston kuni bayrami bilan tabrikladi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston – Pokiston strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning amaliy jihatlarini atroflicha muhokama qilindi.

So'nggi yillarda o'zaro aloqalar faol tus olgani mamnuviyat bilan qayd etildi. Siyosiy muloqot mustahkamlanib, parlamentlararo va idoralararo almashinuvlar jadal rivojlanmoqda.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra o'zaro savdo hajmi salkam 500 million dollarga yetdi. O'zbekistonda Pokiston kapitali ishtirokidagi 230 ga yaqin korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi aviaqatnovlar ko'paydi. Banklararo korrespondentlik munosabatlari mustahkamlanmoqda.

To'qimachilik, farmatsevtika, kimyo, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Tomonlar ushbu tashrif arafasida

o'tkazilgan siyosiy maslahatlashuvlar va Hukumatlararo komissiya yig'ilishining natijalarini olqishladilar.

Tashrif doirasida O'zbekiston sanoat mahsulotlarining ko'rgazmasi o'tkazilmogda.

Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari Muvofiqlashtiruvchi qo'mitasining birinchi yig'ilishini yaqin kunlarda Toshkentda o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Ishbilarmon doiralar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik o'rnatish maqsadida O'zbekiston – Pokiston Ishbilarmonlar kengashini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Yaqin kelajakda o'zaro tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi. Amaldagi Imtiyozli savdo bitimi doirasidagi mahsulotlar turini, shuningdek, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun fitosanitariya ruxsatnomalari ro'yxatini yanada kengaytirish hamda O'zbekistonning Lahor va Karachidagi savdo uylaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, geologiya, farmatsevtika, yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalarda qariyb 3,5 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllantirildi.

Transport va logistika aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Transaf'yon temir yo'li loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish va Pokiston – Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston

transport yo'lagini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Ikki mamlakat hududlarining o'zaro aloqalari iqtisodiy hamkorlik rivojining asosiy drayverlaridan biri sifatida belgilandi.

O'zbekiston – Pokiston hududlararo forumini tashkil etishga kelishilb, uning birinchi uchrashuvini shu yil Xorazm viloyatida o'tkazish taklifi bildirildi.

Ziyorat turizmi sohasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari alohida muhokama qilindi. Ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash maqsadida joriy yilda Pokistonda O'zbekiston madaniyati haftaliklari va O'zbekiston kinosi kunlarini o'tkazishga kelishib olindi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Boburiylar merosini targ'ib qilish uchun Lahorda qo'shma madaniyat markazini tashkil etishni taklif qildi.

Muzokaralar davomida xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilib, ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirishga qat'iy itilish bildirildi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev Shahboz Sharifni javob tashrifi bilan O'zbekistonga kelishga taklif etdi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif Qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Bundan tashqari, yetakchilar huzurida quyidagi ikki tomonlama

hujjatlarni almashish marosimi bo'lib o'tdi:

– Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2026 – 2028-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;

– O'zbekiston – Pokiston Ishbilarmonlik kengashini tashkil etish to'g'risida bitim;

– O'zbekiston – Pokiston hududlararo forumini tashkil etish to'g'risida shartnoma;

– Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimga yangi tovarlar ro'yxatini kiritish haqida bayonnoma;

– Port xizmatlari va chegirmalar taqdim etish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– Konchilik va geologiya sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– Qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va rivojlanish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– Farmatsevtika mahsulotlarini nazorat qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– To'qimachilik va tikuvchilik sanoatida hamkorlik to'g'risida bitim;

– Raqamli va axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– Madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– Buyuk Boburiylar sulolasining ilmiy-ma'rifiy, madaniy va me'moriy merosini asrash, o'rganish hamda keng targ'ib qilish to'g'risida bitim;



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

## BUYUK DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA, ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN'AT HOMIYSI SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690-YILLIGINI KENG NISHONLASH TO'G'RSIDA

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg'onish davri – Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o'rin tutadi.

Mustabid tuzum tomonidan nohaq qoralab kelingan bu ulug' zotning muborak nomi va xotirasi mustaqillik yillarida tarixiy adolat asosida qayta tiklandi. Sohobqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o'zlikni anglash, an'ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma'naviy kuch bag'ishlab kelmoqda.

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari o'rnatilgani, Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo'lga qo'yilgani, “Amir Temur”

ordini ta'sis qilangani, yurtimizdagi ko'plab ko'cha va xiyobonlarga ulug' ajdodimiz nomi berilganini alohida qayd etish lozim.

Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi – Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohobqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o'rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o'rganish, yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish maqsadida **qaror qilaman:**

#### I. Maqsad

1. Mazkur qarorning asosiy maqsadi buyuk ajdodimiz asos solgan Ikkinchi Uyg'onish davrining milliy va umuminsoniy mohiyati, **yosh**

avlodni Yangi O'zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o'rni va ta'sirini inobatga olib, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan tashkiliy-amaliy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarish hisoblanadi.

#### II. Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar

2. Fanlar akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Mudofaa vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining quyidagi takliflari ma'qullansin:

a) **joriy yilda** Sohobqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash;

(Davomi 2-betda).



## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n uchinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

5-fevral kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n uchinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

O'n uchinchi yalpi majlisning birinchi

ish kunini senatorlar parlament yuqori palatasining 2025-yildagi faoliyati natijalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni muhokama qilishdan boshladi.

Mazkur masala yuzasidan Senat Raisi ma'ruza qilib, o'tgan yil davomida Senat tomonidan qonunchilik, nazorat-tahlil, xalqaro hamkorlik, mahalliy Kengashlar bilan o'zaro hamkorlik hamda aholi murojaatlari bilan ishlash yo'nalishlarida erishilgan asosiy natijalarga to'xtaladi.





# Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oʻn uchinchi yalpi majlisi toʻgʻrisida

## AXBOROT



Maʼlum qilinishicha, 2025-yilda Senat tomonidan 136 ta qonun koʻrib chiqilib, ularning 130 tasi maʼqullangan. Yangi konstitutsiyaviy vakolatlardan kelib chiqib, fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish kabi muhim yoʻnalishlar boʻyicha 13 ta qonunchilik tashabbusi ilgari surilgan.

Nazorat-tahlil faoliyati doirasida 83 ta tadbir oʻtkazilib, hududlarda aholini qiynayotgan masalalar yuzasidan Hukumatga aniq takliflar kiritilgan. Jumladan, aholini tashvishga solayotgan 1,5 mingdan ortiq masalalar aniqlangan va Hukumatga kiritilgan taklif asosida ularni hal qilish uchun 2026-yilda Davlat byudjetidan 2,2 trillon soʻm ajratilishi koʻzda tutilgan.

Shuningdek, Senat xalqaro va parlamentlararo faoliyatini jadal davom ettirdi. Xorijiy hamkorlar bilan koʻplab uchrashuvlar oʻtkazildi, nufuzli xalqaro anjumanlar tashkil etildi.

19 ta mamlakat bilan yangi parlamentlararo hamkorlik guruhlarini tashkil etilgan. Qator yirik xalqaro tadbirlar, xususan, 2025-yil 5 – 9-aprel kunlari Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yuqori saviyada oʻtkazilgan.

Mahalliy Kengashlar faoliyatini kuchaytirish, deputatlar salohiyatini oshirish va mahallalarda muammolarni hal etishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

Senat qoʻmitalari tomonidan mahalliy Kengashlar bilan hududlardagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni muhokama etish va hal qilish boʻyicha qoʻshma sayyor majlislarini oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyilgan. Deputatlarning malakasi va kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida 100 dan ortiq oʻquv seminarlari oʻtkazilgan.

Yalpi majlisda 2026-yilda Murojaatnomada belgilangan ustuvor yoʻnalishlar asosida qonun ijodkorligi, parlament nazorati, hududlar bilan ishlash, aholi bilan muvofiqotni yanada kuchaytirish va xalqaro aloqalarni kengaytirish vazifalari belgilab olindi.

Muhokama yakunida senatorlar tomonidan taklif va fikr-mulohazalar bildirilib, ushbu yoʻnalishlar boʻyicha qoʻshma sayyor majlislarini oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyilgan. Deputatlarning malakasi va kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida 100 dan ortiq oʻquv seminarlari oʻtkazilgan.

Yalpi majlisda "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi toʻgʻrisida"gi qonun muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini

taʼminlash, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda.

Biroq amaldagi qonunchilik hujjatlarida tadbirkorlik subyektlarining doimiy ravishda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish majburiyati va masʼuliyati belgilanmagan.

Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini taʼminlash tizimi xalqaro talablarga toʻliq javob bermasligi natijasida respublikamizda oziq-ovqat mahsuloti isteʼmoli bilan bogʻliq kasalliklar, ovqatdan zaharlanish holatlari kuzatilmoqda, bu esa, oʻz navbatida, aholini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash, sohada nazoratni kuchaytirish hamda mahsulot xavfsizligining umumiy tamoyillarini xalqaro talablardan kelib chiqqan holda belgilashga yoʻnaltirilgan qonunchilikni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Qonun bilan oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligini taʼminlashning asosiy prinsiplari, vakolatli davlat organlarining sohadagi vakolatlari aniq belgilanmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish maqsadida Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi boʻyicha idoralararo kengash faoliyati yoʻlga qoʻyilishi nazarda tutilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligiga doir sanitariya choralarini, qoida va normalarni ishlab chiqish hamda qoʻllash tartibi sanitariya va fitosanitariya choralarini qoʻllash bitimi talablari bilan uygʻunlashtirilmoqda.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonunning qabul qilinishi aholini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashga, sohada davlat nazoratini kuchaytirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini hamda oziq-ovqat sohasining investitsiyaviy jozibadorligini va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi. Shundan soʻng yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida"gi qonun koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, ushbu qonun bilan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi aniq belgilab berilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport subyektlari qatoriga Sport vazirligi, Milliy olimpiya qoʻmitasi, Milliy paralimpiya qoʻmitasi

kiritilmoqda hamda ularning qoʻshimcha vakolatlari belgilanmoqda.

Qonunda paralimpiya, surdlimpiya, maxsus olimpiya va koʻzi ojizlar sporti harakatlari doir normalar, sport federatsiyalari, klublari va ligalarining huquqiy maqomi hamda faoliyat yuritish tartibi, ularni reestrga kiritish va chiqarish mezonlari mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, qonunda murabbiy, sport hakami va sport agentining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari ham belgilanmoqda. Bundan tashqari, sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish tartibi, sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda taʼsir koʻrsatishga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi yangi normalar kiritilmoqda.

Qonunda aholini ommaviy sportga jalb qilish va ommaviy sport tadbirlarini tizimli oʻtkazib borishga eʼtibor qaratilgan.

Qonunda davlat tomonidan sportchi hamda murabbiyga bir martalik va oylik toʻlov shaklidagi qoʻllab-quvvatlash choralarini koʻrilishi mumkinligi mustahkamlanmoqda.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonun sohani yanada rivojlantirishga, jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarni tizimli tashkil etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu qonun bilan amaliyotda mavjud noaniqliklar va huquqiy boʻshliqlar bartaraf etiladi, unda vazirlik va idoralarning hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining sohaga oid vazifalari aniq belgilab qoʻyilgan.

Senatorlar mazkur qonunni maʼqulladi.

Yalpi majlisda "Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritish haqida"gi qonun ham muhokama etildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan dasturchi-frilanserlar oʻzlari yaratgan dasturiy mahsulot va raqamli kontentni xorijiy mijozlarga sotishda xalqaro elektron platformalardan keng foydalanmoqda. Ayrim yirik platformalar yordamida toʻlovlar bank kartalari yoki bank oʻtkazmalari orqali amalga oshirilayotgan boʻlsa-da, "Upwork", "Fiverr", "Envato", "Storyblocks" kabi platformalarda toʻlovlar faqat "PayPal" orqali amalga oshirilishi mumkin.

Biroq hozirgi vaqtda "PayPal" toʻlov tizimi Oʻzbekistonda chiqarilgan bank kartalari orqali toʻliq ishlamaydi. Bu cheklov mamlakatimiz qonunchiligi, xususan, "Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida"gi Qonunda belgilangan maʼlumotlarni faqat Oʻzbekiston hududida saqlash talabi bilan bogʻliq. Natijada xalqaro toʻlov tizimlarining Oʻzbekiston bozoriga kirishi muayyan darajada cheklanib qolmoqda.

Qonunga kiritilayotgan oʻzgartirishlar bu boradagi muammolarni bartaraf etadi. Xalqaro onlayn toʻlov tizimlarining mamlakatimizda faoliyat yuritishini yengillashtirish, fintex, elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot rivojini jadallashtirish, frilanserlar uchun qonuniy va shaffof toʻlov mexanizmlarini yaratish, chet eliki turistlar uchun kontaktsiz toʻlov imkoniyatlarini kengaytirish shular jumlasidandir.

Qonunda faqat ayrim turdagi shaxsga doir maʼlumotlar (biometrik, genetik hamda

telekommunikatsiya xizmatlari bilan bogʻliq maʼlumotlar) Oʻzbekiston hududida saqlanishi shartligi belgilanmoqda.

Boshqa maʼlumotlarni chet elga uzatish va saqlash uchun aniq xavfsizlik talablari joriy etilib, Vazirlar Mahkamasiga shaxsga doir maʼlumotlar xavfsizligi taʼminlangan davlatlar roʻyxatini tasdiqlash vakolati berilmoqda.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonun elektron tijoratni rivojlantirish yoʻnalishida huquqiy va meʼyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlariga xalqaro internet platformalaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni maʼqulladi.

Parlamentning yuqori palatasi aʼzolari "Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida"gi qonunni ham muhokama qildi.

Soʻzga chiqqanlar taʼkidlaganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilishga va xalqaro tajribani inobatga olgan holda bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish va xalqaro islomiy moliya standartlariga muvofiq yangi turdagi muqobil bank xizmatlarini joriy etish zarurati yuzaga kelayotgani taʼkidlab oʻtildi. Shundan kelib chiqib, mazkur qonun bilan 2 ta kodeks hamda 7 ta qonunga islomiy bank faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilovchi yangi normalar kiritilmoqda.

Xususan, qonun bilan islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya turi joriy qilinib, unga oid talablar belgilanmoqda. Jumladan, mazkur litsenziya bilan banklar tomonidan toʻliq islomiy bank faoliyatini amalga oshirish yoki bir vaqtning oʻzida ham anʼanaviy, ham islomiy bank faoliyatini amalga oshirish imkoniyati paydo boʻladi.

Shuningdek, islomiy moliya faoliyati bilan bogʻliq masalalarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarda islomiy moliya kengashini tashkil etish hamda uning faoliyatiga doir talablar belgilanmoqda.

Bundan tashqari, islomiy moliya operatsiyalarining oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olib, Soliq kodeksiga islomiy moliya operatsiyalarini soliqqa tortish tartibini belgilovchi alohida bob kiritilmoqda. Unga asosan islomiy moliya faoliyatidan olingan daromadlar soliq solish maqsadlarida foizli daromadlarga tenglashtirilib, banklar va mikromoliya tashkilotlari tomonidan mijozga realizatsiya qilinadigan tovarlarga qoʻyiladigan ustama QQSDan ozod qilinmoqda.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonunning aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga,

mamlakatimizda raqobat muhitining yaxshilanishiga hamda bank-moliya sohasiga yangi strategik investorlarning kirib kelishiga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni maʼqulladi.

Shuningdek, "Ekologik toza hududlarning huquqiy maqomi belgilanishi munosabati bilan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga qoʻshimcha kiritish haqida"gi qonun koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda tabiiy hududlarni muhofaza qilish, ularning maydonini kengaytirish, tabiiy majmualarni, oʻsimlik va hayvonot dunyosining noyob turlarini saqlab qolish bilan bogʻliq zarur choralar koʻrilmoqda. Natijada muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 6,3 million gektarni tashkil etib, ularning mamlakat hududidagi ulushi 14,2 foizga yetkazilgan.

Shuningdek, togʻli hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, kurortlar, mehmonxonalar, madaniy-sogʻlomlashtirish va boshqa infratuzilma obyektlarini barpo etish orqali qoʻshimcha ish oʻrinlarini yaratish maqsadida turistik zonalar tashkil etilmoqda.

Oʻz navbatida, kurort tabiiy hududlar va rekreatsiya zonalarining ekologik toza hududlarini va ular rejimining qonuniy asoslarini belgilash zarurati ham yuzaga kelmokda.

Shundan kelib chiqib, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida"gi Qonunga qoʻshimcha kiritilib, kurort



Ahmed MUHAMMADOV oʻzgan surtidir.

tabiiy hududlar va rekreatsiya zonalarida joylashgan, atrof tabiiy muhitga taʼsiri meʼyorlardan oshmaydigan, energiya samarador infratuzilmalar bilan taʼminlangan, chiqindilarni samarali boshqarish tizimi joriy etilgan, yuqori rekreatsiya va ekoturizm salohiyatiga hamda boy biologik xilmaxillikka ega boʻlgan hududlar ekologik toza hududlar hisoblanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, mazkur hududlarda ekologik tizimlarning barqarorligiga taʼsir koʻrsatadigan, tabiiy landshaftlarining qoʻrinishi hamda yer osti suvlarining gidrogeologik holati oʻzgartirilishiga olib keladigan ishlarining olib borilishi, tabiiy obyektlarga va majmualarga salbiy taʼsir qiluvchi

sanoat obyektlarining qurilishi hamda faoliyat koʻrsatishi taqiqlanmoqda.

Senatorlarning fikricha, qonunning qabul qilinishi ekologik xavfsizlikni taʼminlash, ekoturizmni rivojlantirish, tabiiy obyektlarni saqlash, biologik xilmaxillikni muhofaza qilish hamda mamlakatimizning xalqaro miqyosda ekologik nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Yalpi majlisda "Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi qonun muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, Yangi Oʻzbekistonda davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va javobgarlikni taʼminlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilib, mazkur qonun ana shu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Qonunda hukumat aʼzolariga taqdim etilgan shaxslar va hokim lavozimiga nomzodlar endi oʻz faoliyat dasturlari bilan bir qatorda korrupsiyaning oldini olish boʻyicha shaxsiy rejalarni ham taqdim etishi shart etib belgilanmoqda. Bu esa rahbar kadrlarning masʼuliyatini oshirishga va halollik tamoyillariga sodiqligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, sud-huquq sohasidagi oʻzgarishlar doirasida daʼvolarni soddalashtirilgan tartibda koʻrib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida maksimal daʼvo bahosining oshirilishi fuqarolar va tadbirkorlar uchun sudga murojaat qilish jarayonini yanada yengillashtiradi.

Qonunda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan normalar ham alohida oʻrin egallaydi. Xususan, maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarida yuzaga kelayotgan huquqbuzarliklar boʻyicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining sudga davlat boji toʻlamasdan murojaat qilish huquqi belgilanishi davlat manfaatlarini samarali himoya qilishda muhim qadam sifatida baholandi.

Muhokama davomida qonunni ishlab chiqish jarayonida bir qator xorijiy davlatlar tajribasi oʻrganilgani, korrupsiyaning oldini olish boʻyicha alohida reja taqdim etish talabi xalqaro amaliyotga toʻliq mos kelishi taʼkidlab oʻtildi.

Senatorlar ushbu qonunning qabul qilinishi xalqning davlatga boʻlgan ishonchini mustahkamlashga, korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi bosqichni boshlashga, sud tizimi samaradorligini oshirishga hamda investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilishini qayd etdi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shu bilan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oʻn uchinchi yalpi majlisining birinchi ish kunu yakunlandi.

**Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.**

# XALQCHIL QONUNLAR MUHOKAMASI

*Kecha Oliy Majlis Senatining navbatdagi 13-yalpi yigʻilishi oʻz ishini boshladi. Majlis kun tartibidan xalqimiz turmush farovonligiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi, ularni yengillashtiruvchi qonunlar muhokamasi oʻrin oldi. Xususan, shaxsga doir maʼlumotlarning saqlanishi bilan bogʻliq, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik masalalar borasidagi muhokamalar ancha qizgʻin kechdi. Quyida Senat aʼzolarining koʻrib chiqilgan masalalar yuzasidan munosabatlari oʻrin olgan.*

## Munosabat

### Shaxsiy maʼlumotlar yanada qattiqroq himoya qilinadi

**Qutbiddin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi raisi:**

– Keyingi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, naqdsiz toʻlovlar ulushini oshirish, elektron tijoratni kengaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun zamonaviy moliyaviy xizmatlarni joriy etish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilyapti. Ayni jarayonda amaldagi ayrim qonun normalari xalqaro toʻlov tizimlarining mamlakatimiz bozoriga erkin kirib kelishini cheklayotgani, bu esa raqamli iqtisodiyot rivojida baʼzi toʻsiqlarni keltirib chiqarayotgani kuzatilmoqda.



Jumladan, "Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida"gi Qonunga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir maʼlumotlarini yigʻish, saqlash va qayta ishlash, asosan, respublika hududida joylashgan serverlarda amalga oshiriladi. Qonunning bu talabi amaliyotda ayrim salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Misol uchun, bugungi kunda dunyoda eng keng tarqalgan onlayn va kontaktiz toʻlov xizmatlaridan biri – "Google Pay" tizimi. Ushbu tizim hozirgi kunda 97 ta davlatda faoliyat yuritadi va 150 milliondan ortiq foydalanuvchilarga ega. Oʻzbekiston fuqarolari esa mazkur tizimdan foydalanishi uchun oʻz shaxsiga doir (familiyasi, ismi, bank kartasi rekvizitlari, yashash manzili) maʼlumotlarini tizim asoschisi boʻlgan xorijiy kompaniyaga berishi talab etiladi. Taqdim qilingan ushbu maʼlumotlar esa Oʻzbekiston hududidan tashqariga joylashgan serverlarda saqlanadi. Zotan, bu holat amaldagi qonunchilik talablariga zid sanaladi.



Bunday cheklov natijasida elektron tijorat va raqamli xizmatlar bozorining oʻsishi sekinlashib, oʻzini oʻzi band etgan shaxslar, ayniqsa, dasturiy taʼminot, axborot tizimlari va raqamli mahsulotlar yaratish bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar xorijiy buyurtmachilardan toʻlovlarni rasmiy kanallar orqali qabul qila olishmayapti.

Shuningdek, bu jarayon toʻlovlarni "aylanma yoʻllar" orqali amalga oshirish amaliyotiga yoʻl ochib, "yashirin iqtisodiyot" hajmini oshirish hamda mamlakatning turistik jozibadorligiga ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Muhokamadagi "Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritish haqida"gi qonun loyihasi qabul qilinishi natijasida Oʻzbekiston Respublikasi hududida majburiy tarzda saqlanishi lozim boʻlgan shaxsga doir maʼlumotlar roʻyxati aniqlashtirilib, boshqa turdagi shaxsga doir maʼlumotlarni chet elga uzatish, ularni qayta ishlash va saqlash, xorijiy davlatlarda maʼlumotlar xavfsizligini yetarli darajada taʼminlash hamda xalqaro axborot xavfsizligi standartlarini joriy etish belgilanmoqda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda elektron tijorat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlashga, xalqaro toʻlov tizimlari va internet platformalarining Oʻzbekiston bozoriga kirib kelishini ragʻbatlantirishga, aholi va tadbirkorlar uchun zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirishga, shuningdek, xorijiy turistlar uchun qulay toʻlov muhitini yaratishga xizmat qiladi.

**Oziq-ovqatdan zaharlanishlar kamayadi**

**Anvar TOʻYCHIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi:**

– Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni taʼminlashning muhim omili boʻlib, Bunday tashqari, oziq-ovqat biznesi operatorlarining mahsulot xavfsizligi boʻyicha majburiyatlarini ham aniq belgilab berilmoqda va yakuniy mahsulotni sertifikatlash asosida nazorat olib borish oʻrniga



u dunyo davlatlari, jumladan, Oʻzbekiston uchun ham dolzarb sanaladi. Ayni paytda aholi sonining oʻsishi oziq-ovqat mahsulotlariga talab va isteʼmol hajmining kundan-kun ortishiga olib kelyapti. Zero, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari aholining salomatligini taʼminlash, millat

genofondini saqlash hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirishda muhim rol oʻynaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 22 mingdan ortiq oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud boʻlib, ulardan atigi 601 tasida (2,7 foiz) oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi bilan bogʻliq jiddiy xatarlarni bartaraf qilish uchun proaktiv nazorat choralarini koʻrish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan xalqaro yondashuv – xatarlar tahlili va kritik nazorat nuqtalari tizimi joriy etilgan. Bu esa, oʻz navbatida, ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlarida tadbirkorlik subyektlarining xavfsiz oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish boʻyicha majburiyati, ularning bu boradagi masʼuliyati belgilanmagan. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini taʼminlash tizimi xalqaro talablarga toʻliq javob bermasligi natijasida yurtimizda u bilan bogʻliq kasalliklar hamda ovqatdan zaharlanish holatlari uchrab turibdi. Bu esa tizimda zudlik bilan ayrim choralar koʻrishni, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash borasida qonunchilikka zarur oʻzgartirishlar kiritishni talab qilmoqda.

Taklif etilayotgan "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi toʻgʻrisida"gi qonunda oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligini taʼminlashning asosiy tamoyillari belgilanib, davlat organlarining mazkur sohadagi vakolatlari aniq koʻrsatilmoqda.

Xususan, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi sohasini idoralararo muvofiqlashtirish maqsadida Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi boʻyicha idoralararo kengash faoliyatini tashkil qilish belgilanmoqda. Sanitariya choralarini, qoida va normalarni ishlab chiqish va qoʻllash tartibi Jahon savdo tashkilotining sanitariya va fitosanitariya choralarini qoʻllash boʻyicha bitimi talablari bilan uygʻunlashtirilmoqda.

Bundan tashqari, oziq-ovqat biznesi operatorlarining mahsulot xavfsizligi boʻyicha majburiyatlarini ham aniq belgilab berilmoqda va yakuniy mahsulotni sertifikatlash asosida nazorat olib borish oʻrniga

samarali oziq-ovqat biznesi operatorlarini Yagona reestrga kiritish hamda xavfni tahlil qilgan holda nazoratni amalga oshirish tizimi joriy etilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi ushbu hujjatning qabul qilinishi aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratishga, oziq-ovqat mahsuloti isteʼmoli bilan bogʻliq boʻlgan kasalliklarni kamaytirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Oʻz navbatida, sohada davlat nazorati mahsulotning xavfsizligini taʼminlashga qaratiladi, shuningdek, profilaktika chora-tadbirlari joriy etiladi.

### Islomiy moliya sari huquqiy qadam

**Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi:**

– Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ammo shunday boʻlsa-da, islomiy moliya xizmatlarini soliqqa tortish masalalari hal etilmagani (soliq neytralligi taʼminlanmagani) sababli mazkur xizmatlarning mikromoliya tashkilotlari kredit portfelidagi ulushi atigi 3,8 mlrd. soʻmni yoki 0,04 foizni tashkil qilmoqda.



## Bedorlik

## MAJBUR QILAMIZ!



Biz uchun kuyganni, kuymaganni ham, Mehrimiz tuyganni, tuymaganni ham, Bizlarni suyganni, suymaganni ham, Mehr qo'rimizdan masrur qilamiz – Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Lekin pashshaga ham bo'lmagaymiz g'ov, Begona bog'larda qilmagaymiz ov, Faqir bo'lsa hamki, bo'lsa hamki yov, Mahvash bog'imizga maftun qilamiz, Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Jahonni o'ziga qaratgan xalqimiz, Olamga sharaflar taratgan xalqimiz, Ikki Renessansni yaratgan xalqimiz, Vatanni Oydan-da mashhur qilamiz, Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Biz ko'rgan, ko'rmagan tomonlar haqqi, To'zonli, to'fonli zamonlar haqqi, Jahongir Turkiston, Turonlar haqqi, Bobolar ruhini mavhur qilamiz, Bizni tan olishga majbur qilamiz!

To'g'ri, tinch bo'lmadi doim yo'limiz, Tumanga ko'mildi o'ngu so'limiz, Hech kimdan past emas bugun qo'limiz, Dillarni, dillarga maxmur qilamiz, Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Bugun uyg'onmoqda qadimiy bo'ston: Yangi O'zbekiston – qudratli tug'yon, Qudratli har ko'ngil, har dil – bir doston, Turkiston uyg'ondi, uyg'ondi Turon, Endi yeru ko'kni maftun qilamiz, Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Otashqalb, sheryurak Yurtboshi bilan, O'zbekning mehribon quyoshi bilan, Qurdoshi, qo'doshi, yo'doshi bilan, Jumlai jahonni maftun qilamiz, Bizni tan olishga majbur qilamiz!

**Abdusaid KO'CHIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan  
yoshlar murabbiysi,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

## Ochiq parlament

## DEPUTATLAR RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI O'RGANDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi a'zolari Sog'liqni saqlash vazirligida bo'lib, sohada korrupsiya omillarini bartaraf etish, tizimni raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Muloqotda so'nggi yillarda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini tubdan yangilash, uni zamonaviy talablar va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani aytiladi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Raqamli sog'liqni saqlash markazi tashkil etildi. Uchrashuvda vazirlik mas'ullarining bu boradagi axborotlari ham eshitildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Raqamli sog'liqni saqlash markazi sog'liqni saqlashni raqamlashtirish sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan raqamli transformatsiya jarayonlarining asosiy muvofiqlashtiruvchi tuzilmasi hisoblanadi.

Bugungi kunda markaz tomonidan tibbiyot tizimini to'liq raqamlashtirish, elektron retsept amaliyotiga o'tish, tibbiyot muassasalari o'rtasida yagona axborot makonini shakllantirish, shuningdek, bemorlarning tibbiy ma'lumotlarini elektron shaklda yuritish va ishonchli

himoya qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, joriy etilgan tizim orqali aholi uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yanada kengayib, tibbiyot xodimlarining ish yuki optimallashtirilayotir, inson omili ta'siri kamaytirilib, tibbiy tavsiyalar qabul qilishda aniq va xolis ma'lumotlarga tayanish imkoni yaratilmoqda.

Mas'ullarning ma'lum qilishicha, ushbu markaz faoliyati mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli tibbiyotni tatbiq etish yo'lidagi qat'iy siyosiy iroda hamda sog'liqni saqlashni zamonaviy, ochiq va samarali tizimga aylantirish borasidagi izchil sa'y-harakatlarni yaqqol namoyon qiladi.

Uchrashuvda deputatlar tomonidan sohaga oid amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, tizimni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

“Xalq so'zi”.

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## Maqsadli indikatorlar ijrosi:

## TAHLIL VA NATIJALAR QANDAY?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2025-yil davomida byudjet xarajatlarining maqsadli indikatorlari ijrosi bo'yicha amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi axborotlari eshitildi.



Yig'ilishda ushbu vazirlik va idoralar tomonidan maqsadli indikatorlarga erishish borasidagi ijobiy natijalar e'tirof etildi. Shuningdek, ijrosi to'liq yoki qisman bajarilgan maqsadli indikatorlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar mutaxassislar ishtirokida atroflicha muhokama qilindi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotiga ko'ra, maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha o'tgan yilda byudjet tashkilotlarida ishlovchi 1,3 million xotin-qizning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari uchun zarur mablag' ajratilgan. Byudjet tashkilotlarida ishlovchi 162 mingga yaqin

ayollarga homiladorlik nafaqasi uchun rejaqa ko'ra mablag'lar yo'naltirilgan. Xususiyl sektorda ishlovchi ayollar ham qo'llab-quvvatlanib, ularning 12,3 ming nafariga byudjetdan tegishli mablag' ajratilgan. Qolaversa, ishsiz va ish qidirayotgan xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, ularning malakasini oshirish maqsadida Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 259,6 ming nafar xotin-qiz uchun zarur mablag'lar yo'naltirilgan.

Muhokama davomida vazirlik tomonidan maqsadli indikatorlar bajarilishi bo'yicha erishilgan ijobiy natijalar taqdim etilgan bo'lsa-da, ayrim vazifalar

ijrosi haqida ma'lumot yo'qligi deputatlarning e'tiroziga sabab bo'ldi.

Eshituv davomida Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilgani aytiladi. Xususan, inson huquqlariga rioya etilishini, fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklari tiklanishini ta'minlash bo'yicha murojaatlarning 1228 ta, ya'ni maqsadli indikator ko'rsatkichidan 172 taga kam bo'lishi mamlakatimizda ushbu sohadagi ijobiy o'zgarishlarning

natijasi sifatida qayd etildi.

Din ishlari bo'yicha qo'mita axborotida keltirilganidek, diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish maqsadida byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlari maqsadli indikatorlarining ijrosi borasidagi faoliyat yuzasidan qo'mita rasmiy veb-saytida hisobotlar joylashtirib kelingan.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan maqsadli indikatorlarning ijrosi to'liq bajarilmagan holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va kelgusida ularning oldini olish bo'yicha har bir vazirlik, idora tomonidan chuqur tahlillar o'tkazilishi yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasiga har bir vazirlik va idoraning maqsadli indikatorlar ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotlarini tizimli nazoratga olib borish hamda bu boradagi ishlarning sifatini oshirish tavsiya etildi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

## SAMARALI KO'RSATKICHLAR VA MUHIM TAVSIYALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligining “Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, shuningdek, maqsadli indikatorlarning bajarilishi to'g'risida”gi axboroti eshitildi.

Muhokama davomida vazirlik tomonidan maqsadli indikatorlarga erishish borasidagi ijobiy natijalar deputatlar tomonidan alohida qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida vazirlikka yuklatilgan barcha vazifalar ijrosi to'liq ta'minlangan. Xususan, yoshlarni IT sohasida tayyorlash bo'yicha “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o'tgan yilda 500 mingdan ortiq yoshlar onlayn ta'lim kurslarini tamomlagan. Shuningdek, mamlakat aholi punktlarini

internet bilan qamrab olish darajasi yuqori ko'rsatkichlarga yetkazilgan. Mobil internet qamrovi 99,5 foiz, optik tolali aloqa bilan qamrov esa 98,1 foizni tashkil etgan.

Vazirlik axborotida IT-park faoliyati bo'yicha ijobiy natijalar ham aytiladi. Xususan, IT-park rezidentlari soni 3 426 taga yetkazilib, ularda yaratilgan ish o'rinlari 43 mingdan oshgani urg'ulandi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish yo'nalishida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida xizmatlar soni 800

tadan oshirilib, elektron xizmatlar ulushi 62,7 foizga yetkazilgani natijasida aholi hamda tadbirkorlar uchun vaqt va moliyaviy resurslar tejashiga erishilgan.

Yig'ilishda 2025-yilda vazirlikka ajratilgan byudjet mablag'larining asosiy qismi maqsadli va samarali o'zlashtirilgani, ayrim yo'nalishlar bo'yicha mablag'lar optimizatsiya qilingani ta'kidlandi.

Shu bilan birga, deputatlar tomonidan Davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish, bunda maqsadli indikatorlar ijrosiga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilab olish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Yakunda mazkur masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

## HUDUD TARAQQIYOTIDA YANGI BOSQICH

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar 2026-yilda Farg'ona viloyatidagi barcha islohotlarning asosiy mezoniga aylandi. Joriy yilda iqtisodiy o'sishni faqat raqamlarda emas, balki aholi daromadlari, yangi ish o'rinlari va turmush sifati orqali his ettirish asosiy maqsad qilib olindi.

## Fikr

Kuni kecha Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan bu borada muhim vazifalar belgilab berildi.

Aytish kerakki, bugun viloyatda investitsiya muhitini yaxshilash va yangi institutlar joriy qilish maqsadlariga erishish yo'lida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, xususiyl sektor faolligini oshirish hamda loyihalarni tizimli boshqarishga qaratilgan yangi mexanizmlar tatbiq etilmoqda.

Ayni vaqtda viloyatga xalqaro moliya bozorlarida ishonch ortayotgani muhim ahamiyatga ega. Bir qator xalqaro agentliklar bilan bu borada muayyan ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, hududda ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati uchun zamin yaratish maqsadida xalqaro moliya institutlaridan ham mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan muhim istiqbolli loyihalarining ro'yobga chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Shu o'rinda iqtisodiy o'sishning aniq ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ma'lumki, mamlakat rahbari tomonidan



2030-yilga borib respublika YAIM hajmini 240 mlrd. dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgandi. Shu maqsadga Farg'ona viloyatining ulushi ham aniq hisob-kitob qilingan. Barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali 2030-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmini oshirish rejalashtirilgan.

Viloyatda har bir islohot inson qadrini ulug'lashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Jumladan, kambag'allikka qarshi kurashishda faqat ijtimoiy yordam bilan cheklanib qolmasdan, har bir oila uchun alohida “daromad xaritasi” ishlab chiqish, kasb-hunar, mulk, tomorqa, kredit va bozorga chiqish orqali barqaror daromad manbalari yaratish amaliyoti joriy etiladi.

Bundan tashqari, maxsus sanoat zonalar uchun yer ajratilishi ko'zda tutilgani farg'onalik tadbirkorlar tomonidan katta minnatdorlik bilan qabul qilindi. Bu viloyat sanoat salohiyatini keskin oshirish, import

o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Qurilish va infratuzilma sohasida ham muayyan chora-tadbirlar belgilandi. Ko'p qavatli uy-joylar qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, elektr, gaz, ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini keng ko'lamda rekonstruksiya qilish shular jumlasidan.

Qishloq xo'jaligida daromad va hosildorlik ustuvor sohaga aylandi. 2026-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Suv tejovchi texnologiyalar, intensiv bog'dorchilik va qayta ishlash hisobiga fermerlar daromadini kamida 1,5 barobar oshirish maqsad qilingan. Suv xo'jaligida “aqlli” texnologiyalar joriy etilib, intensiv bog' va akvakultura loyihalari amalga oshiriladi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va sport sohalarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali xizmatlar sifati yangi bosqichga olib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim qamrovi, aholining sport bilan munozam shug'ullanishi ham rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga yetkaziladi.

Prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalar viloyatda yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berib, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Barcha chora-tadbirlar hayotiy tamoyillarga to'la mos bo'lib, ularning ijrosi natijasida viloyat barqaror rivojlanayotgan, investitsiya uchun jozibador va aholi farovonligi yuksalgan hududga aylantiriladi.

**Gulchehra JO'RAYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati.

## FAN VA TA'LIM

## yangiliklari

## O'zbekiston oliy ta'lim salohiyatining Ozarbayjondagi namoyishi



Ozarbayjon Respublikasida O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarining navbatdagi ko'rgazmasi muvaffaqiyatli tashkil etildi. Unda mamlakatimizdan qator oliygohlar qatnashib, ta'lim dasturlari, ilmiy salohiyat va xalqaro imkoniyatlarini keng jamoatchilikka taqdim qildi.

Ko'rgazma doirasida abituriyentlar va hamkorlar uchun mo'ljallangan “Study in Uzbekistan” veb-portalning taqdimoti ham uyushtirildi.

Ozarbayjonning yetakchi universitetlari bilan bo'lib o'tgan samarali uchrashuvlar davomida ikki tomonlama akademik almashinuv, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi.

## Maktab o'quvchilari uchun maxsus stipendiya



O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasidan ma'lum qilinishicha, yurtimizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun maxsus choraklik stipendiya joriy etildi.

Maqsad – o'quvchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, iqtidorli va ijtimoiy faol o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar orasida iste'mol madaniyatini oshirish hamda iste'molchilar huquqlariga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish, kelajakda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash.

Ushbu stipendiya dastlab olis hududlar – Mo'ynoq, Tomdi va So'x tumanlaridagi maktablarda tatbiq qilinadi.

Tegishli nizomga ko'ra, maxsus stipendiya har chorakda, ya'ni har uch oyda bir marotaba iqtidorli va faol o'quvchilarga taqdim etiladi.

## Yosh iste'dodning xalqaro muvaffaqiyati



Yurtimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning iqtidori va bilimiga alohida e'tibor qaratilayotgani xalqaro miqyosdagi yutuqlar orqali ham yaqqol namoyon bo'layotir.

Gap shundaki, Toshkent shahringin Chilonzor tumanida joylashgan 368-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi Yunusbek Abdusalimov Qatar davlatida bo'lib o'tgan ingliz tili bo'yicha xalqaro olimpiadada munosib ishtirok etib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yosh bo'lishiga qaramasdan Yunusbekning chet tilini puxta o'zlashtirgani, bilim hamda salohiyatini xalqaro maydonda namoyon eta olgani, shubhasiz, kelajakdagi muvaffaqiyatlarga poydevor bo'ladi.

“Xalq so'zi”.

## Joriy yilda “O'zbekiston merosi mehmonxonalari” dasturi amalga oshiriladi.

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'kir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; ko'chibuy 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbachi muharrir G'. Bahromov.  
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.35 Topshirildi – 02.35

1 2 3 4 5 6